

K. RAHIMQULOV

**MILLIY HARAKATLI
O'YINLAR**

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI

Karimjon Rahimqulov

MILLIY HARAKATLI O‘YINLAR

*O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi
tomonidan pedagogika oliy ta‘lim muassasalarining
«Jismoniy tarbiya va jismoniy madaniyat» bakalavriat ta‘lim
yo‘nalishi talabalari uchun o‘quv qo‘llanma sifatida
tavsiya etilgan*

«TAFAKKUR-BO‘STONI»
TOSHKENT — 2012

UDK: 796.2(075)

74.200.55

R33

Taqrizchilar: **K.M. Mahkamjonov**, TDPU «Jismoniy tarbiya metodikasi va bolalar sporti» kafedrası pedagogika fanlari nomzodi, professor,

R. Abdumalikov, O‘zDJTI pedagogika fanlari nomzodi, professor.

Ushbu o‘quv qo‘llanma talabalarni harakatli o‘yinlar nazariyasi (milliy harakatli o‘yinlarning kelib chiqish tarixi, o‘yinlarning tavsiflari), milliy harakatli o‘yinlarni tashkil etish va o‘tkazish uslubiyatlari hamda otabobolarimiz o‘ynab kelgan o‘yinlar haqida bilim, ularning ijtimoiy-tarbiyaviy mohiyatlari haqida qisqacha ma‘lumotlar, ko‘nikma va malakalar bilan ta‘minlashni ko‘zda tutadi.

ISBN

NAMANGAN DAVLAT
UNIVERSITETI
Axborot-resurs markazi

© «Tafakkur-Bo‘stoni», 2012.

KIRISH

O'zbek xalq milliy harakatli o'yinlarining kelib chiqish tarixi uzoq o'tmishimiz bilan bog'lanib ketadi.

Afrosiyob, Dalvarzin tepa, Sirdaryoning quyi qismlarida (Toshkent viloyati), shuningdek, Xorazm va Qoraqalpog'iston hududlarida o'tkazilgan arxeologik qazilmalar, qidiruv ishlarining natijalari asosida topilgan turli xil buyumlar, ashyolar, bezaklarning (rasm) guvohlik berishicha, bundan 3—4 ming yillar avval ajdodlarimiz xilma-xil o'yinlar, jismoniy mashqlar bilan mashg'ul bo'lishgan. Yovvoyi hayvonlarni tutish, ov qilish, quvlash, nayza sanchish, ular bilan olishish kabi yana ko'plab murakkab harakatli faoliyatlar tasvirlarda, sopol va metall buyumlarda ifoda etilgan. Shuningdek, Omonqo'ton (Samarqand), Chorvoq atrofidagi (Toshkent viloyati) yassi toshlar, g'orlarda odamlarning ov qilish va hayvonlar bilan jang qilish (olishish), turli o'yinlar bilan shug'ullanishlari aks ettirilgan. Bunday holatlar Surxon va Qashqa vohasidagi g'orlar, sohillardagi toshlar, Farg'ona vodiysidagi tog'li manzillar (Chotqol tog'lari)da ham ko'p uchraydi.

Qadimgi ajdodlarimiz hozirgi Markaziy Osiyo hududlaridagi barcha xalqlar (qozoq, qirg'iz, turkman, tojik, uyg'ur va boshq.) bilan yaqin aloqadorlikda hayot kechirganlar. Ularning ijtimoiy turmush madaniyati, urf-odatlarini, turli marosimlari bir-biriga juda o'xshash bo'lgan. Shu sababdan ham milliy harakatli o'yinlar o'zaro aralashib ketgan. Masalan, ko'pkari-uloq, poyga, qiz quvmoq, otdan ag'darish, otda qilichlashish (savlash), nayza sanchish,

dor o'yhash, kurash kabi murakkab harakatli o'yinlar Markaziy Osiyoning barcha hududlarida keng tarqalgan. Ijtimoiy-madaniy turmush sharoitidan kelib chiqqan «Quloq cho'zma», «Eshak mindi», «Oq suyak», «Chillik» («Chilluk»), «Qulpoq tepish», «Piyoda poyga», «Poda to'p», palaxmon va shuxmondan tosh otish, kamondan (yoy) nayza (o'q) otish, «Xo'rozlar jangi», «Mushuk va sichqon», «Bo'ta soldi», «To'qqiz tosh», «Shuvoq», «Bekin-machiq» kabi yuzlab milliy harakatli o'yinlar ham barcha xalqlar, elatlar, urug'-aymoqlar hayotida chuqur o'rin egallagan. Bu o'yinlarning paydo bo'lish tarixi 2–3 ming yildan kam emas.

«Alpomish», «Go'ro'g'li», «Kuntug'mush», «Qirq qiz», «Tohir va Zuhra» kabi xalq og'zaki ijodi durdonalarida tilga olingan ko'plab o'yinlar ham, avvalo, og'izdan og'izga o'tib bizgacha yetib kelgan. Shuningdek, o'g'il uylantirish, qiz chiqarish, beshik, sunnat, payg'ambar yoshi kabi to'ylar, Navro'z, Hosil yig'ish bayramlari (qovun sayili, gul sayili va h.k), hayitlar, gashtaklar (gaplar) va juda ko'p marosimlar xalqlardan xalqlarqa o'tib kelgan. Ularning Ko'pkari-uloq, poyga, otdan ag'darish, qiz quvmoq, kurash kabi o'yinlar qatori «Piyoda poyga», «Quloq cho'zma», «Xo'rozlar jangi», «To'qqiz tosh» (qizlar o'yini), «Gardkam» (oshiq o'yinlari) kabi xilma-xil qiziqarli o'yinlar yuqorida sanab o'tilgan marosimlarning tarkibidan o'rin olgan.

O'zbek xalq milliy o'yinlarining mazmunini yozib olish, ularni yoshlarga o'rgatish masalalari bilan shug'ullanishga kirishish asosan XIX asrning ikkinchi yarmiga to'g'ri keladi. Xalq milliy o'yinlariga oid ma'lumotlarni L.Bajenko (1840), A.Borj (1848), G.Vamper (1877), A.Arandarenko (1889) kabi rus sayyohlari va arxeolog olimlarining asarlarida uchratamiz. XX asr boshlarida arxeologik va tarix sohasidagi olimlar V.Bartold, A.Vinogradov, S.P.Tolstov,